| Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limga jalb etilgan imkoniyati cheklangan<br>bolalar bilan ishlashda montessori metodikasining uyg'unligi .....        | 327 |
| <b>Ismatova Shodiya Ne'matilla qizi, Xaydarova Shaxlo Narzullayevna</b>                                                                                               |     |
| XIV asr oxiri va XV asr boshlari turkiy tillar taraqqiyotini o'rganishda<br>"Kitob ul-Bulg'at" asarining lingvistik tadqiqi .....                                     | 332 |
| <b>Tursunaliyeva Muslimabonu Abduvosit qizi</b>                                                                                                                       |     |
| Informatika ta'limida interfaol o'quv majmualari asosida o'yinli texnologiyalarni<br>qo'llash orqali o'quvchilarning bilim va kompetensiyalarini rivojlantirish.....  | 336 |
| <b>Nabiyev Feruz Abdumannonovich</b>                                                                                                                                  |     |
| STEAM loyihalari asosida maktab o'quvchilarida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish.....                                                                        | 341 |
| <b>Choriyor Maxmatraimov Eshmatovich</b>                                                                                                                              |     |
| Psixolog talabalarda tolerantlik va madaniyatlararo kompetensiyalarni shakllantirish .....                                                                            | 345 |
| <b>Akbaraliyeva Asilaxon Tojiddinovna</b>                                                                                                                             |     |
| Raqamli ta'lim muhitining pedagogik salohiyati asosida o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini<br>rivojlantirish (texnologiya fanini o'qitish misolida).....          | 348 |
| <b>Kulboyeva Dilnoza Abdug'ofurovna</b>                                                                                                                               |     |
| O'zbek tili – faxrim, g'ururim .....                                                                                                                                  | 351 |
| <b>H. Shukurova, M.Jumanazarova</b>                                                                                                                                   |     |
| Zamonaviy dars – pedagogik ijodkorlikning asosiy maydoni.....                                                                                                         | 355 |
| <b>M. Kuzibayeve</b>                                                                                                                                                  |     |
| Talabalarni ta'lim jarayonida sun'iy intellekt elementlaridan foydalanishga<br>tayyorlash metodikasini takomillashtirish.....                                         | 358 |
| <b>Mastonov Jahongir Mamatqul o'g'li</b>                                                                                                                              |     |
| Raqamli maktabda yashil o'quv dasturi: kengaytirilgan va virtual reallik texnologiyalari<br>bilan integratsiyaning pedagogik modeli.....                              | 362 |
| <b>Maxmudov Abdiqodir Yusupovich</b>                                                                                                                                  |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kasbiy faoliyat jarayonida pedagogik empatiyani<br>shakllantirish pedagogik muammo sifatida .....                                  | 367 |
| <b>Orinbaeva Jarqinay Djuginis qizi</b>                                                                                                                               |     |
| Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations .....                                                                                                    | 371 |
| <b>Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova</b>                                                                                                                             |     |

|                                                                                                                                               |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirishda nazariya va amaliyot integratsiyasi muammolari .....                      | 377 |
| Sh. A. Xujakulov, T. B. Kadirov                                                                                                               |     |
| Uzoq muddat davolanayotgan bolalarning matematik savodxonligini oshirishda fanlararo bog'lanishning roli.....                                 | 383 |
| Tursunova Dildora Ziyadullayevna, Ochilov Orazbek Qosim o'g'li                                                                                |     |
| Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziyning "Maorif" asarida bilish etikasi va ma'naviy-axloqiy tarbiya .....                                    | 387 |
| Tursunova Nilufar Samiyevna                                                                                                                   |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari .....                                          | 393 |
| Tursunova Saidra Isakovna                                                                                                                     |     |
| Yosh avlodni tarbiyalashda hamkorlik tarbiya texnologiyasining o'rni .....                                                                    | 396 |
| Pirlijeva Gulmira Botir qizi                                                                                                                  |     |
| Integrativ raqamli-didaktik yondashuv asosida interfaol o'quv majmuallardan foydalanish muammolari va rivojlanish istiqbollari.....           | 400 |
| Nabiyev Feruz Abdumannonovich, Mamanazarov Baxrom Jumonovich                                                                                  |     |
| Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatda bilish jarayonlarini rivojlantirish .....                                            | 405 |
| Sadirova Kamola Giyozovna                                                                                                                     |     |
| Kurash sport turining yoshlar jismoniy va ma'naviy rivojlanishidagi ahamiyati.....                                                            | 409 |
| O'razboyeva Adiba Abdug'ani qizi                                                                                                              |     |
| Bo'lajak oilaviy shifokorlarning kasbiy motivatsion rivojlanishini ta'minlashning pedagogik yondashuvlari.                                    | 413 |
| Xalmuxamedov Bobir Taxirovich                                                                                                                 |     |
| О развитии учебно-познавательной деятельности студентов .....                                                                                 | 418 |
| М. Халикова                                                                                                                                   |     |
| Психологические механизмы искажения истины в процессе социализации: нормативно-когнитивная модель и смешанное эмпирическое исследование ..... | 421 |
| С. Ю. Нишанов                                                                                                                                 |     |
| Методы повышения речевой активности студентов в процессе обучения иностранному языку.....                                                     | 425 |
| Утешова Зернегул Хурметуллаевна                                                                                                               |     |
| Prenatal va erta chaqaloqlik rivojlanishi va rivojlanishning biologik asoslari .....                                                          | 429 |
| N. Mirbabayeva                                                                                                                                |     |
| O'smir shaxsining rivojlanishi .....                                                                                                          | 433 |
| Matyakubova Shohista Odamboy qizi                                                                                                             |     |
| O'zbekistonning ma'naviy va madaniy hayotida jadidlarning tutgan o'rni .....                                                                  | 435 |
| N. M. Qodirova                                                                                                                                |     |
| Development of Physical Qualities Through the Use of Special Physical Exercises With Student Participation.....                               | 439 |
| Rikhsiev Dilshod Shavkatovich                                                                                                                 |     |
| Tabiiy fan darslarida STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanishning ahamiyati .....                                                           | 442 |
| Umaraliyeva Baxtilaxon Raxmonali qizi                                                                                                         |     |
| Special Physical Exercises in Coxarthrosis During the Preoperative and Postoperative Periods of Rehabilitation.....                           | 446 |
| Valiev Farrukh Nigmatjonovich                                                                                                                 |     |
| Роль цифровых технологий и дидактических принципов в учебных практик.....                                                                     | 449 |
| Байметов М. М.                                                                                                                                |     |



# 10–11 YOSHLI FUTBOLCHILARDA TEZKORLIK SIFATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Ishmuratov Hasanboy Karimjonovich

Urganch davlat pedagogika instituti magistri

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada 10–11 yoshli futbolchilarda tezkorlik sifatini (harakat tezligi, start tezligi, reaksiya tezligi va tezkorlikka barqarorlik) ilmiy asoslangan metodika asosida rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda bolalar organizmining rivojlanish qonuniyatlari, yosh va psixofiziologik xususiyatlari, motorik ko'nikmalarning shakllanish jarayoni hamda futbol o'yinining zamonaviy talablari tahlil qilingan. Tezkorlik sifatini shakllantirishda o'yin xarakteridagi mashqlar, qisqa davomli maksimal yuklamalarga asoslangan interval uslubi, texnik-taktik topshiriqlar bilan integratsiyalashgan tezlik mashqlari va psixologik tayyorgarlik omillarining ahamiyati ochib berilgan. Taklif etilayotgan metodika haftalik mikrotuzilmalari, mashg'ulot namunalarini hamda nazorat testlari orqali amaliy jihatdan asoslab berilgan. Maqola yakunida bolalar futboli bilan shug'ullanuvchi murabbiylar va sport maktablari uchun metodik tavsiyalar hamda kelgusidagi ilmiy tadqiqotlar yo'nalishlari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** futbol, 10–11 yosh, tezkorlik, start tezligi, reaksiya tezligi, bolalar sporti, mashg'ulot metodikasi.

**Abstract:** This article examines the issues of developing speed abilities in 10–11-year-old football players, including movement speed, starting speed, reaction speed, and speed endurance, based on a scientifically grounded methodology. The study analyzes the patterns of children's physical development, age-related and psychophysiological characteristics, the formation of motor skills, as well as the modern demands of football performance. Special attention is given to the use of game-based exercises, interval methods involving short-term maximal loads, speed drills integrated with technical and tactical tasks, and psychological preparation factors in the development of speed abilities. The proposed methodology is practically substantiated through weekly microcycle structures, training session models, and control tests. The article concludes with methodological recommendations for youth football coaches and sports schools, as well as directions for future scientific research.

**Key words:** football, 10–11 years, speed abilities, starting speed, reaction speed, youth sport, training methodology.

**Аннотация:** В статье рассматриваются вопросы развития скоростных качеств у футболистов 10–11 лет (скорость движения, стартовая скорость, скорость реакции и скоростная устойчивость) на основе научно обоснованной методики. Проанализированы закономерности развития детского организма, возрастные и психофизиологические особенности, формирование двигательных навыков, а также современные требования футбольной игры. Показана роль игровых упражнений, интервального метода с кратковременными максимальными нагрузками, скоростных упражнений, интегрированных с технико-тактическими заданиями, а также факторов психологической подготовки в формировании скоростных качеств. Предлагаемая методика обоснована на практике с использованием структуры недельных микроциклов, примеров тренировочных занятий и контрольных тестов. В заключение представлены методические рекомендации для тренеров детского футбола и спортивных школ, а также перспективные направления дальнейших научных исследований.

**Ключевые слова:** футбол, 10–11 лет, скоростные качества, стартовая скорость, скорость реакции, детский спорт, методика тренировки.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentabrdagi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-394-son<sup>1</sup> Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

1 O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentabrdagi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-394-son Qonuni: <https://lex.uz/docs/-2742233>



PQ–3907-son<sup>2</sup> qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning ustuvor vazifalari belgilab berilgan.

So'nggi yillarda futbol o'yinining sur'ati sezilarli darajada oshib bormoqda. Yuqori darajadagi jamoalar o'yinchilari nafaqat jismoniy bardoshlilikka, balki tezkor qaror qabul qilish, qisqa masofalarda keskin tezlanish hamda tez yo'nalish o'zgartirish qobiliyatiga ham ega bo'lishlari zarur. Ayniqsa, 10–11 yosh davrida bolalar futbolida tezkorlik sifatini to'g'ri va ilmiy asoslangan usullar orqali rivojlantirish kelgusida sport mahoratini shakllantirishning muhim poydevorini tashkil etadi.

Tezkorlik sifati ko'p komponentli bo'lib, unda markaziy asab tizimi faolligi, mushak-asab tizimi muvofiqligi, texnik tayyorgarlik darajasi hamda psixologik omillar (diqqat, reaksiya, motivatsiya) o'zaro uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. 1; 2. 10–11 yoshli futbolchilar uchun tezkorlikni rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishda quyidagi omillarni inobatga olish talab etiladi: biologik va psixofiziologik yetilish darajasi; harakat ko'nikmalari-ning shakllanishidagi "sezgir davr"; jarohatlanish xavfining oldini olish; mashg'ulot yuklamalari hajmi va intensivligi o'rtasidagi optimal mutanosiblik; shuningdek, o'yin elementlari bilan bog'liq motivatsion jihatlari.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy sport ilmda tezkorlik futbolchilarning musobaqaviy faoliyatini belgilovchi asosiy jismoniy sifatlardan biri sifatida e'tirof etiladi. J. M. Sheppard va W. B. Young tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda tezkorlik va agility tushunchalarining tasnifi, ularni rivojlantirish va baholash usullari ilmiy asosda yoritilgan bo'lib, ayniqsa qisqa masofalarda tezlanish va yo'nalish o'zgartirish futbol o'yinining hal qiluvchi omillari sifatida ko'rsatib berilgan. S. V. Hill-Haas va hammualliflar futbol mashg'ulotlarida kichik o'lchamli o'yinlar orqali tezkorlik va funksional tayyorgarlikni oshirish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslab, o'yin xarakteridagi mashqlar yuqori samaradorlikka ega ekanligini ta'kidlaydilar.

Bolalar va o'smirlar sportida tezkorlikni rivojlantirish masalasi yoshga xos fiziologik qonuniyatlar bilan chambarchas bog'liq. R. M. Malina, C. Bouchard va O. Bar-Or tomonidan bolalar organizmining o'sishi, yetilishi va jismoniy faolligi o'rtasidagi bog'liqlik chuqur tahlil qilingan bo'lib, tezlik va reaksiya qobiliyatlarini rivojlantirish uchun 10–11 yosh davri sezgir bosqichlardan biri ekanligi asoslab berilgan. R. S. Lloyd va J. L. Oliver tomonidan taklif etilgan yosh sportchilarni uzoq muddatli rivojlantirish modeli tezkorlikni kuch va chidamlilikdan ajratgan holda, bosqichma-bosqich rivojlantirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi. R. M. Philippaerts va hammualliflar esa biologik yetilish darajasi bilan tezkorlik ko'rsatkichlari o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini yosh futbolchilar misolida ko'rsatib bergan.

Milliy va mintaqaviy tadqiqotlarda ham tezkorlikni rivojlantirish metodikasiga alohida e'tibor qaratilgan. Sh. E. Boltaev tomonidan yosh sportchilarning mashg'ulot jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish masalalari yoritilib, tezkorlikni texnika va o'yin faoliyati bilan integratsiyalash muhimligi ta'kidlangan. A. E. Madaminovning jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasiga oid tadqiqotlarida tezkorlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari, yuklamani me'yorlash va yosh xususiyatlarini hisobga olish masalalari keng yoritilgan. Shuningdek, G. I. Mukhamedov va hammualliflar ta'lim va sport jarayonida klaster yondashuvini qo'llash orqali mashg'ulotlar samaradorligini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatib, yosh futbolchilar tayyorgarligida tizimli yondashuv muhim ekanligini asoslab berganlar.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolaning maqsadi – xalqaro ilmiy adabiyotlar hamda amaliy tajriba asosida 10–11 yoshli futbolchilarda tezkorlik sifatini rivojlantirishga qaratilgan samarali, zamonaviy va amaliyotga tatbiq etiladigan metodikani asoslash hamda tavsiya etishdan iborat.

Tezkorlik tushunchasi va uning futbolchidagi ko'rinishlari. Tezkorlik – bu shaxsning berilgan sharoitda harakat faoliyatini eng qisqa vaqt ichida boshlash va amalga oshira olish qobiliyati sifatida ta'riflanadi. 3. Futbolchi kontekstida tezkorlik bir nechta o'zaro bog'liq komponentlardan iborat:

Start tezligi (tezlanish) – 5–10 metr masofada maksimal tezlikka erishish qobiliyati. Bu, ayniqsa, to'pga birinchi bo'lib yetib borish, raqibdan ajralib chiqish yoki himoyada tez qaytish vaziyatlarida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Masofa bo'ylab yugurish tezligi – odatda 20–30 m yoki 30–40 m oralig'ida futbolga xos bo'lgan chiziqli (to'g'ri yo'nalishdagi) tez yugurish qobiliyati.

Reaksiya tezligi – tashqi signalga (murabbiy buyrug'iga, hushtakka, vizual ishoraga, raqibning harakati yoki to'p traektoriyasiga) javob harakatining boshlanishigacha o'tgan vaqt oralig'i. Futbolida bu ko'rsatkich o'yin vaziyatini o'qish va uni tez baholash jarayoni bilan uzviy bog'liq.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–3907-son qarori: <https://lex.uz/docs/-3864155>

**TAHLIL VA NATIJALAR**

Tezkor yo'nalish o'zgartirish (agility) – qisqa vaqt ichida tezlanish, to'xtash, keskin burilishlar, yonlama va diagonal yo'nalishlarda harakatni o'zgartirish qobiliyatini ifodalaydi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ushbu tushuncha ko'pincha “koordinatsion tezkorlik” yoki “o'yin tezkorligi” atamalar bilan ham yuritiladi. Tezkorlikka barqarorlik esa o'yin davomida, ayniqsa ikkinchi bo'limda ham yuqori tezkor ko'rsatkichlarni saqlab qolish qobiliyatini anglatadi. Ushbu komponent ayrim holatlarda “sur'atda bardoshlilik” tushunchasi bilan uyg'unlashib ketadi, biroq 10–11 yosh davrida u nisbatan ehtiyotkorlik bilan rivojlantirilishi lozim. Tezkorlikning mazkur komponentlarini alohida va kompleks ravishda rivojlantirish murabbiydan mashg'ulotlarni puxta rejalashtirish, yuklamalarni qat'iy nazorat qilish hamda o'yin mazmuniga moslashtirilgan mashqlarni tanlashni talab etadi.

10–11 yoshli bolalarning jismoniy va psixofiziologik xususiyatlariga ko'ra, mazkur yosh davri nisbatan barqaror o'sish bosqichi hisoblanadi va bolalar hali pubertat davriga to'liq kirib bormagan bo'ladi. Shu sababli mushak massasining keskin o'sishi kuzatilmaydi, biroq tayanch-harakat apparati, markaziy asab tizimi hamda yurak-qon tomir tizimi jadal rivojlanishda davom etadi. Ushbu yosh davriga xos asosiy xususiyatlar shundan iboratki, motorik analizatorlar (ko'rish–harakat, eshitish–harakat) o'rtasidagi funksional bog'lanishlar faol shakllanadi va koordinatsion qobiliyatlar rivojlanishining sezgir davri kuzatiladi. Markaziy asab tizimida qo'zg'alish jarayonlarining tormozlanish jarayonlaridan ustunligi tezkor, ammo ayrim hollarda nazoratsiz harakatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Harakat stereotiplari nisbatan tez shakllanadi, biroq noto'g'ri texnik ko'nikmalarni keyinchalik tuzatish murakkablashadi. E'tibor barqarorligi odatda 15–20 daqiqa bilan cheklanadi, shu bois mashg'ulot jarayonida faoliyat turlarini tez-tez almashtirish va o'yin elementlarini kiritish muhim ahamiyat kasb etadi. Fiziologik nuqtayi nazardan qaralganda, ushbu yosh davri tezlik qobiliyatini, xususan, reaksiya tezligi va harakat chastotasini (qadam tezligi, oyoq ishinining tezligi) rivojlantirish uchun qulay davr hisoblanadi.

Biroq maksimal kuch mashqlari, og'ir shtangalar bilan ishlash hamda ortiqcha plyometrik yuklamalar (chuqur sakrashlar, balandlikdan pastga sakrashlar) umurtqa pog'onasi va bo'g'imlarga ortiqcha yuk tushirishi mumkinligi sababli cheklanishi yoki moslashtirilgan shaklda qo'llanilishi lozim.

Tezkorlikni rivojlantirish mexanizmlari bir nechta nazariy yondashuvlar orqali izohlanadi. Asab-mushak tizimi nazariyasiga ko'ra, tezkorlik markaziy va periferik asab tizimlarining impulslarni yuqori tezlikda uzatishi, motor birliklarning tez va sinxron ishga tushirilishi hamda mushak tolalarining qisqarish tezligi bilan bevosita bog'liqdir. Energetik nazariya nuqtayi nazaridan esa kichik masofalarda bajariladigan tezkor harakatlar asosan adenozintrifosfat–kreatinfosfat (ATF–KF) tizimi hisobiga amalga oshadi. 10–11 yosh davrida ushbu tizim yetarli darajada faol bo'lsa-da, uning sig'imi kattalarnikiga nisbatan past bo'ladi, shu sababli mashqlar qisqa davomli (5–8 soniya) bo'lib, to'liq yoki qisman tiklanish oralig'ida bajarilishi zarur. Koordinatsion nazariya tezkor harakatlarda mushaklarning faollashuvi va bo'shashuvi (relaksatsiya)ning optimal navbatma-navbatligi, harakat amplitudasi, qadam chastotasi va uzunligi hamda harakat yo'nalishining aniq muvofiqlashuvi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Shu jihatdan, tezkorlikni texnik va koordinatsion tayyorgarlikdan ajratib bo'lmaydi. Psixologik nazariyaga ko'ra esa reaksiya tezligi va qaror qabul qilish sur'ati diqqatning konsentratsiyasi, oldindan taxmin qilish (anticipation), vizual va taktil axborotni qayta ishlash tezligi bilan chambarchas bog'liq. Shu bois tezkorlikni rivojlantirish metodikasi mazkur nazariy tamoyillarni kompleks hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim.

10–11 yoshli futbolchilarda tezkorlikni rivojlantirishda bir qator metodik tamoyillar asosiy yo'riqnoma sifatida qabul qilinadi. Jumladan, tezkorlik mashqlari qisqa davomli bo'lib, maksimal yoki submaksimal intensivlikda (5–8, ayrim hollarda 10–12 soniya) bajarilishi kerak, chunki uzoq davom etuvchi mashqlar tezkorlikdan ko'ra chidamlilikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Takroriy tezlik mashqlari orasida 30 soniyadan 2–3 daqiqagacha bo'lgan yetarli dam olish oralig'i (yurib dam olish, yengil yugurish, nafas mashqlari yoki yengil texnik elementlar orqali) ta'minlanishi zarur. Tezkorlikni texnika bilan integratsiyalashgan holda rivojlantirish, ya'ni to'p bilan va to'psiz texnik elementlar (dribling, to'pni qabul qilish va uzatish, zarba berish) orqali mashg'ulotlar tashkil etish samaradorlikni oshiradi. O'yinlashtirilgan mashqlar bolalar uchun motivatsiyaning asosiy manbai bo'lib, estafeta va kichik o'yinlar ko'rinishidagi topshiriqlar tezkorlikni tabiiy tarzda rivojlantirish imkonini beradi. Yuklamaning individualizatsiyasi ham muhim bo'lib, bir xil yoshdagi bolalar biologik rivojlanish darajasiga ko'ra farq qilishi sababli masofa uzunligi, takrorlar soni va dam olish oralig'i individual tarzda moslashtirilishi lozim. Mashqlar murakkabligi, tezligi va signal turlarining (vizual, eshitish, taktil) variativligi bosqichma-bosqich oshirib borilishi, shuningdek, jarohatlanish xavfsizligi uchun yetarli isinib olish, mos poyabzal va nazorat ostida sakrash mashqlaridan foydalanish talab etiladi.

Tezkorlik va texnikani integratsiyalashgan mashqlar qatoriga 10–15 m masofada to'p bilan dribling bajarilib, so'ng 5–10 m to'psiz sprintni amalga oshirish mashqi kiradi, bu esa to'p bilan ishlash va start tezligini uyg'unlashtiradi. “1×1 tezkor duel” mashqida kichik maydon segmentida ikki o'yinchi qarama-qarshi turib, murabbiy signaliga ko'ra to'pga yaqinroq bo'lgan futbolchi hujumchi, ikkinchisi himoyachi vazifasini bajaradi va qisqa masofada raqibni chetlab o'tish yoki to'pni olib qo'yish maqsad qilinadi. “Bir teginishda zarba” mashqlarida esa



murabbiy yoki sherik tomonidan uzatilgan to'pga futbolchi bir tegishda tez zarba berib, reaksiya, koordinatsiya va zarba tezligini rivojlantiradi.

Mashg'ulotlarni rejalashtirishda 10–11 yoshli futbolchilar bilan haftasiga 3–4 marotaba mashg'ulot o'tkazilishi va tezkorlikka qaratilgan ish umumiy tayyorgarlik tuzilmasiga integratsiyalangan bo'lishi lozim. Uch mashg'ulotli haftalik mikrotsikl namunasi sifatida birinchi kuni start tezligi va chiziqli sprintga yo'naltirilgan mashqlar, ikkinchi kuni yo'nalish o'zgartirish tezkorligi va reaksiya mashqlari, uchinchi kuni esa tezkorlik va texnikani integratsiyalashgan mashqlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Tezkorlik mashqlari odatda mashg'ulotning boshida, isinib olishdan keyin va charchoq kam bo'lgan paytda bajarilishi, mashg'ulotning oxirgi qismida esa nisbatan kam intensiv, taktika va texnikaga yo'naltirilgan o'yin elementlari kiritilishi lozim.

Tezkorlik sifatining rivojlanishini baholash va nazorat qilish uchun muntazam testlash zarur bo'lib, 10–11 yoshli futbolchilar uchun 5 m sprint testi, 20 m sprint testi, "Illinois agility test" yoki shunga o'xshash moslashtirilgan testlar tavsiya etiladi. Reaksiya tezligini baholashda signal bo'yicha start, kutilmagan yo'nalishda tashlangan to'pni ushlab qolish kabi usullar qo'llanilishi mumkin. Testlar oyiga bir marta yoki 6–8 haftada bir marotaba o'tkazilib, natijalar asosida mashg'ulot dasturiga zarur tuzatishlar kiritiladi.

Murabbiylar uchun amaliy tavsiyalar shundan iboratki, tezkorlik mashqlari har bir mashg'ulotda kamida 10–20 daqiqani tashkil etishi, haftasiga 2–3 marotaba aniq tezkorlikka yo'naltirilgan bloklar bo'lishi lozim. To'psiz va to'p bilan bajariladigan mashqlar o'rtasida muvozanat saqlanishi, mashqlar qisqa seriyalar bilan takrorlanib, dam olish oralig'i qat'iy nazorat qilinishi kerak. 10–11 yosh davrida katta og'irliklar va keskin plyometrik mashqlardan qochib, asosan o'z tana og'irligi bilan bajariladigan mashqlarni tanlash tavsiya etiladi. Shuningdek, har bir futbolchi uchun kundalik yoki haftalik kuzatuv varag'ini yuritish ortiqcha yuklanishning (overtraining) oldini olishga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, 10–11 yoshli futbolchilarda tezkorlik sifatini rivojlantirish ularning kelgusidagi sport mahorati va raqobatbardoshligida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ushbu yosh davrining fiziologik va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan metodika quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab olishi zarur.

Mazkur metodika xalqaro ilmiy adabiyotlar, murabbiylik amaliyoti hamda bolalar sporti fiziologiyasi tamoyillariga asoslangan bo'lib, futbol maktablari va akademiyalarida samarali qo'llanilishi mumkin. Kelgusida yirik namunalarda eksperimental tadqiqotlar o'tkazish, turli tezkorlik mashqlarining o'zaro ta'sirini chuqurroq o'rganish hamda gender xususiyatlarini hisobga olgan holda metodikani yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–3031-son Qarori.
2. Sheppard, J. M., Young, W. B. (2006). Agility literature review: Classifications, training and testing. *Journal of Sports Sciences*, 24(9), 919–932.
3. Malina, R. M., Bouchard, C., Bar-Or, O. (2004). Growth, maturation, and physical activity. *Human Kinetics*.
4. Lloyd, R. S., Oliver, J. L. (2012). The youth physical development model: A new approach to long-term athletic development. *Strength & Conditioning Journal*, 34(3), 61–72.
5. Болтаев Ш. Э. Ёш волейболчиларни инновацион ёндашув асосида машғулот жараёнини ташкил этиш // Муғаллим ҳам узликсиз билимлендириш. Илмий-методик журнал. – Нукус, 2022. – № 1. – 87–92 б.
6. Zatsiorsky, V. M., Kraemer, W. J. (2006). Science and practice of strength training. *Human Kinetics*.
7. Mukhamedov, G. I., Khodjamkulov, U. N., Shofkorov, A. M., Makhmudov, K. S. (2020). Pedagogical education cluster: Content and form. *ISJ*.
8. Philippaerts, R. M., et al. (2006). The relationship between peak height velocity and physical performance in youth soccer players. *Journal of Sports Sciences*, 24(3), 221–230.
9. Madaminov, A. E. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. UDK 796.81(075.8), KBK 75.175 ya73. "Dimal" nashriyoti, Toshkent, 2025.
10. Hill-Haas, S. V., Dawson, B., Impellizzeri, F. M., Coutts, A. J. (2011). Physiology of small-sided games training in football. *Sports Medicine*, 41(3), 199–220.
11. Boltayev, Sh. E., Abdurahmonov, Sh. A., Qo'ziyeva, F. B. Umumta'lim maktab o'quvchilarida klaster usulini qo'llash orqali jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini oshirish // The Journal of Academic Research in Educational Sciences (ARES). – Vol. 3. – № 12. – 2022. – P. 339–342.



- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari





# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №2(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.